

---

## "Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivalida marg'ilonlik 3 nafar iste'dodlar g'oliblikni qo'lga kiritdi!

"Kamalak yulduzlari" bolalar ijodiyoti festivali respublika ko'rik-tanlovining Farg'ona viloyati bosqichi o'tkazildi.

Tanlovning "B" doira yo'nalishi 6-10 yosh toifasida Jafarbek Yunusov faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritib, respublika laureati bo'ldi.

Shuningdek, tanlovning amaliy san'at va nasr yo'nalishlarida Mubina Isroiljonova hamda Bibioysha Axmadjonovalar faxrli 2-o'ringa munosib deb topildilar.

G'oliblarga O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan diplom hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari topshirildi

2022-07-30 15:42:53